



BIRINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI XALQARO VAZIYAT

Sevdiyorov Dilshod

O'ZMU, Tarix fakulteti, Tarix yo'nalishi, III bosqich talabasi

“Urush bu ayrimlarning manfaati uchun butunlay begunuh odamlarning o'lishidir”

Uinston Cherchil

Annotatsiya: Maqolada Birinchi jahon urushi davri va uning yakunidan keyingi dastlabki yillarda xalqaro munosabatlarning holati xususida so'z yuritiladi. Shunigdek unda so'nggi yillarda nashr qilingan bir qancha adabiyotlar tahlili asosida o'r ganilayotgan davr siyosiy hayoti haqida muhim o'r in tutgan davlatlararo shartnoma va ittifoqlar, konferensiyalar borasida yangicha qarashlarni ko'rsatib berishga urinildi.

Kalit so'zlar: Birinchi jahon urushi, xalqaro konferensiya, Vudro Vilson, Brest-Litovsk shartnomasi, Millatlar Ligasi, AQSH.

THE INTERNATIONAL SITUATION AFTER FIRST WORLD WAR

Annotation: The article discusses the state of international relations during and in the early years following First world war. It also aims to present new perspectives on intergovernmental treaties, alliances, and conferences that played a significant role in the political life of the studied period, based on the analysis of several publications released in recent years

Key words: First World War, International Conference, Woodrow Wilson, Brest-Litovsk Treaty, League of Nations, AQSH.

МЕЖДУНАРОДНАЯ СИТУАЦИЯ ПОСЛЕ ПЕРВОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

Аннотация В статье рассматривается состояние международных отношений в период Первой мировой войны и в первые годы после её окончания. Также в ней делается попытка представить новые взгляды на межгосударственные договоры, альянсы и конференции, которые играли важную роль в политической жизни рассматриваемого периода, на основе анализа нескольких публикаций, выпущенных в последние годы.

Ключевые слова: Первая Мировая Война, Международная Конференция, Вудро Вилсон, Брест-Литовский мирный договор, Лига Наций,

Bugungi kunda dunyoda ro'y berayotgan voqealar, ya'ni ba'zi davlatlar o'rtasidagi hududiy nizolar, bahsli tortishuvlar va kelishmovchiliklar bizga tarixda yuz bergen voqealarni, hududlar uchun jahoning yirik davlatlari olib borgan urushlarni yodga soladi. Bu holatlar bizni o'tmishga murojaat qilishimizga sabab bo'ladi. Bugun jahon tarixini o'r ganishimizdan asosiy maqsad ham o'tmishda bo'lган xatolarni takrorlamaslik, ulardan to'g'ri xulosa chiqarishdir. O'tmishda yuz bergen ikkita jahon urushi siyosiy, iqtisodiy,



ma’naviy salbiy oqibatlarga olib kelgan. Xususan Birinchi jahon urushidan so‘ng turli g‘oyalar, sinfiy jamiyatlar shakllandi, shu jumladan irqchilik ham ma’lum darajada avj oldi.

Bu o‘rinda jahon tarixchilari va tadqiqotchi olimlar o‘z izlanishlarini olib borib turli xildagi fikrlarni bildirishgan. Mana masalan nemis tarixchisi F. Fisherning “Dunyo hukmronligi uchun kurash” kitobida Germanyaning Birinchi jahon urushidagi roli haqida ma’lumotlar keltirib o’tilgan. Bundan tashqari Prussiya tarixi bo‘yicha mutaxasiss Kembridj universiteti Kristofer Klarkning Birinchi jahon urushi to‘g‘risidagi monografiyalarida urush bormi yoki yo‘qligiga qaramay barcha “bosh qahramonlar” aybdor deb hisoblaydi. F. Fisherning “Dunyo hukmronligiga sakrash” kitobi nashr etilgandan so‘ng, Yevropa va Amerika tarixchilari Fisherga ergashib, urushning boshlanishi uchun aybni asosan Germaniyaga yuklay boshladilar¹

Bundan ko‘rinib turibdiki, biz tadqiqotchilarning ilmiy ishlarini o‘rganib, tahlil qilib xulosa chiqarishimiz kerak. Mana jahon tarixi nima uchun o‘qitilishi kerak?

Xalqaro maydonda siyosiy vaziyatning keskinlashuvi avvalambor hudud masalasida buyuk davlatlarning manfaati to‘qnashdi va .bu orqali ulkan imperiyalar o‘rtasida harbiy-siyosiy ittifoqlar tuzildi. Yevropaning ikkita harbiy blokka ajralishining asosiy sababi 1879-yildan beri Avstriya-Vengriya bilan ittifoqda bo‘lgan Germaniya qudratining tobora ortib borayotganligi edi. Ushbu ikki Markaziy Yevropadagi gegemonlikni qo‘lga olishga intilish xavfi Rossiya va Fransiyani 1893-yilgi ittifoq shartnomasini tuzishga undadi. Shartnomani imzolagan davlatlardan biriga Germaniya hujum qilsa, ikkinchisining harbiy yordam ko‘rsatish majburiyati ko‘zda tutilgan edi.

Angliya va Germaniya ziddiyatlari ham keskinlashgan edi. Germanyaning mustamlakachilik ekspansiyasiga intilishlari Angliyani bezovta qilayotgan edi. Yevropada quruqlikdagi eng kuchli armiyani tashkil qilgan Germaniya endi harbiy-dengiz flotini qurish dasturini qabul qildi va bu hol o‘zini “dengizlar malikasi” deb hisoblaydigan Angliyaning maqomiga xavf sola boshladi. Ana endi Angliya ham o‘ziga ittifoqchi izlayotgan edi bu ittifoqchi davlat Fransiya bo‘ldi. 1904-yilda Angliya-Fransiya o‘rtasida kelishuv imzolanib, tarixga Antantani tuzish haqidagi shartnoma bo‘lib kirdi (Antanta fransuzcha entente rozilik, lekin shunchaki rozilik bo‘lmadan, ittifoqdan yaqinroq, chin dildan rozilik degan ma’noni bildiradi. Bu so‘z XX asr diplomatiyasining eng asosiy iboralaridan biriga aylandi).

Buyuk davlatlar o‘rtasida kelib chiqqan Birinchi jahon urushi bir nechta salbiy oqibatlarga olib kelgan edi. Misol uchun 1917-yilga kelib urush olib borayotgan davlatlar holdan toygan edi.

Chunki urush olib borish uchun ham mablag‘, oziq-ovqat va quroq-yarog‘ talab qilinadi. Bu esa doimiy kurashayotgan davlatni iqtisodiy jihatidan zaiflashishiga olib keladi va urushdan chiqishiga sabab bo‘ladi.

Masalan, Oktyabr davlat to‘ntarishidan keyin Rossiya amalda urushdan chiqdi. 1917-yili 2-dekabr kuni Brest-Litovskda Sovet Rossiyasi bilan Germaniya o‘rtasida yarash sulhi imzolani tinchlik to‘g‘risida muzokaralar boshlanib ketdi

¹Любин. В. П. СОВРЕМЕННАЯ ИСТОРИОГРАФИЯ ПЕРВОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ. 2014. -76.



Brest-Litovsk shartnomasi 1918-yil 3-mart kuni imzolangan. Bir tomonidan Grigoriy Yakulovich Sokolnikov tomonidan bolsheviklar Rossiyasi, ikkinchi tomonidan Germaniya imperiyasi, Avstriya-Ventgriya, Bolgariya va Usmonli davlati imzolagan. Shartnomaga ko'ra bolsheviklar Rossiyasi Boltiqbo'yи davlatlarini Germaniyaga berdi, ular nemis knyazliklari ostida nemis vassal davlatlari bo'lishi kerak edi. Rossiya Janubiy Kavkazdagagi Kars viloyatini Usmonlilar imperiyasiga berdi va Ukraina mustaqilligini tan oldi. Bundan tashqari, 6 milliard nemis oltin markasini tovon puli sifatida to'lashga rozi bo'ldi. Tarixchi Spenser Taker shunday deydi: "Germaniya Bosh shtabi hatto nemis muzokarachini ham hayratda qoladigan juda qattiq shartlarni ishlab chiqdi"². Shartnomada Polsha tilga olinmagan, chunki nemislar Polsha vakillarining mavjudligini tan olishmagan, bu esa Polsha noroziliklariga sabab bo'lgan, keyinchalik nemislar 1919-yilgi Versal shartnomasida norozi bo'lishganda, ittifoqchilar Brest-Litovskdan ko'ra ko'proq xayrixoh deb javob berishgan³.

Brest-Litovsk shartnomasining qabul qilinishi bilan Antanta endi mavjud emas edi. Brest-Litovsk shartnomasi sakkiz oydan sal ko'proq davom etdi. Germaniya shartnomadan voz kechdi va 5-noyabr kuni Sovet Rossiyasi bilan diplomatik aloqalarni uzdi. Usmonli imperiyasi 1918 yil may oyida yangi tashkil etilgan birinchi Armaniston Respublikasiga bostirib kirib, atigi ikki oydan so'ng shartnomani buzdi. 1918-yil 11-noyabrdagi sulh shartnomasida birinchi shartlardan biri Brest-Litovsk shartnomasini to'liq bekor qilish edi. Germaniya kapitulyatsiya quyidagicha: sulhdan keyingi bir yil ichida nemis armiyasi bosqinchi kuchlarini Brest-Litovskda qo'lga kiritilgan yerlardan olib chiqib ketishi kerak edi. Rapallo Shartnomasi 1922 yil aprelda tuzilgan Germaniya shartnomani bekor qilishini qabul qildi va ikki kuch bir-biriga qarshi urush bilan bog'liq barcha hududiy va moliyaviy da'volardan voz kechishga rozi bo'ldi⁴.

Bu shartnoma tomonlar uchun juda yaxshi bo'lgan. Chunki ikkala davlat Rapallo shartnomasidan keyin siyosiy yoki harbiy nizolarga borishga o'rinn qolmagan.

1918-yili yanvar oyida 14 modda deb nomlangan urushdan keyingi dunyoni qayta tuzish bo'yicha dasturning AQSH prezidenti Vudro Vilson tomonidan ishlab chiqilganligi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Unda ochiq shartnomalarni tuzish, erkin kemalar qatnovi, mustamlakachilik muammolarini hal qilish, hududlarni ozod qolish, milliy ozchiliklarga muxtoriyat berish, eng muhimi esa - Millatlar Ligasini barcha mamlakatlarning mustaqilligi va hududiy yaxlitligini himoya qilishga mo'ljallangan dastur edi.

1918-yil 25-oktyabrda ittifoqchilar sulh shartlarini muhokama qilish uchun yig'ildilar. Angliya va Fransiya o'rtaida tafovutlar borligi aniq bo'lib qoldi. Angliya mo'tadil talablarni ilgari surdi, ammo Fransiya, Belgiya hududlarini ozod qilish va Elzas, Lotaringiyani qaytarish talablarini ilgari surdi. Ittifoqchilar kontributsiya sifatida 5000 parovoz va 5000 og'ir va dala to'plari, 150000 wagon, 1700 ta samolyot olishlari kerak edi. 1918-yil 11-noyabrdagi Germaniya sulh bitimini imzoladi. Bitim 34 moddadan iborat edi: Germaniya 15 kun ichida

²<https://courses.lumenlearning.com/suny-hccc-worldhistory2/chapter/the-treaty-of-brest-litovsk/>

³ Шуҳрат Эргашев. Жаҳон тарихи 1800-1918 йиллар II кисм. –Тошкент: Узбекистон, 2015. -535-536Б.

⁴ <https://courses.lumenlearning.com/suny-hccc-worldhistory2/chapter/the-treaty-of-brest-litovsk/>



Fransiya, Lyuksemburg, Elzas va Lotaringiyadan o‘z qo‘sishini olib chiqib ketishi, Germaniyaning Brest-Litovsk va Buxarest shartnomalaridan voz kechishi ko‘zda tutilgan edi. Yevropa davlatlari tomonidan boshlangan urush o’sha paytdagi 59 ta mustaqil davlatdan 1.5 milliarddan ziyod aholisi bo‘lgan va dunyo aholisining 87% ini tashkil qilgan 38 ta davlatni qamrab oldi. 10 million odam halok bo‘ldi. Urush natijasida Rossiya, Germaniya, Avstriya-Vengriya va Usmoniyalar imperiyasi tarqalib ketdi⁵.

Birinchi jahon urushi tarixchilar tomonidan insoniyatga eng mashaqqatli kulfat olib kelgan urush deya tariflanadi. Haqiqatdan ham bu urushga aholining aksariyat qismi qatnashgan va urush oqibatlari ancha qimmatga tushgan edi.

1919-yilning 28-iyunda V.Vilsonning “14 moddasi” asosida yengilgan Germaniya bilan Antanta o‘rtasida Versal saroyida 5 ta davlat (Germaniya, Avstriya, Vengriya, Usmonli va Bolgariya) bilan imzolanadigan 5 ta shartnama matni tayyorlandi. Shu 5 ta shartnama birgalikda Versal tizimi deb ataldi. Shartnomaga ko‘ra Fransiya Elzas va Lotaringiyani o‘ziga qaytarib oldi. Germaniyaning Saar viloyati 15 yil muddatga Millatlar Ittifoqi boshqaruviga berildi. Uning ko‘mir havzalari Fransiyani mulki bo‘lib qoldi. Reyn daryosini chap sohilini 15 yil muddatga Antanta okkupatsiya qildi. Germaniya Chexoslovakiya va Polshaning mustaqilligini tan oldi. Prussiya bosib olgan Sharqiy Pomore Polshaga berildi va bu orqali Polsha Boltiq dengiziga chiqish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Shunday qilib Germaniya 1914-yildagi chegarasidan 1/8 qismini yo‘qotdi va Avstriyaga bo‘lgan da’vosidan voz kechdi. Komissiya reparatsiya miqdorini 1921-yilning 1-mayiga qadar belgilaydigan, Germaniya esa ungacha 20 milliard markani oltin va boshqa qimmatbaho qog‘ozlar bilan to‘lashi shart edi. Reparatsiya muammosi 1921-yilning aprel-may oylarida London konferensiyasida hal etildi. Unga ko‘ra reparatsiya 132 milliard oltin marka miqdorida belgilandi. Uning 52% Fransiyaga, 22% Buyuk Britaniyaga, 10% Italiyaga, 8% Belgiyaga, Ruminiya, Yugoslaviya va Gretsiyaga birgalikda 6.5% va Yaponiyaga esa 0.75% olishi kerak edi.

Buyuk davlatlarning Osiyo va Tinch okeanidagi munosabatlarni tartibga solish uchun 1921-1922- yillarda Washington shahrida 9 ta davlat ishtirokida konferensiya o‘tkazildi. Shu tariqa Versal-Washington tizimi tarixga kirdi.

Millatlar Ligasi – bu tichlik va xalqaro xavfsizlikni saqlash uchun tuzilgan xalqaro tashkilot. Bunday tashkilotni tuzish tashabbusi AQSH prezidenti Vudro Vilsondan kelib chiqqan edi. Buyuk Britaniya va Fransiya esa bu taklifni qo‘llab quvvatlagan edi. 1919-yilning 14- fevral kuni dunyoning 44 ta davlati tashkilotning ustavini qabul qilgan edi. Tashkilotning oliy organi Assambleya edi. Millatlar Ligasiga 5 davlat uning doimiy azolari edi, yani AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya va Yaponiya davlatlari edi. Millatlar Ligasi 1946-yilgacha biror jazo choralarini qo‘llay olmadi bunga Buyuk Britaniya va Fransiya siyosatining quroliga aylanib qolganligi sabab bo‘ldi. Keyinchalik hech qaysi davlat bu tashkilotga amal qilmay qo‘ygan⁶.

Birinchi jahon urushining oqibatlari va undan keyingi dunyoda ro‘y bergen ko‘plab o‘zgarishlar insoniyat tarixidagi boshqa urushlardan farq qiladi. Misol uchun urushidan keyin tuzilgan Millatlar Ligasi tashkiloti ma’lum darajada ahamiyatga ega bo‘ldi. To‘g‘ri bu

⁵ Xolliyev.A.G. Xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi I qism. –Toshkent, 2022. -240-241b.

⁶ M.Lafasov. U.Jo‘rayev. Jahon tarixi. –Toshkent, 2005. -7-11b.



tashkilotning normalariga keyinchalik ko'p davlatlar amal qilmay qo'ygan lekin bu tashkilot kelgusidagi Birlashgan Millatlar Tashkilotining tuzilishiga asos bo'ldi. Yoki bo'lmasa urush dunyoning siyosiy xaritasini tubdan o'zgartirganligini, yangi mustaqil davlatlarning tashkil topishi va oz muddatga bo'lsa ham mustamlakachilik tizimini yanada avj olib ketmasligi uchun ma'lum darajada xalqaro kelishuvlarga erishildi.

Birinchi jahon urushi voqealari doimiy betaraflik institutining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi,

ma'lumki, 1815 yilda Vena kongressida joriy etilgan. Shveytsariyadan keyin Belgiya doimiy betaraflik siyosatini olib bordi, lekin Birinchi jahon urushi davrida Germaniya Belgiyaning betaraflik maqomini buzib unga hujum qildi. Keyinchalik Belgiya ham shartnoma imzolamasdan turib Antanta tomonda urushda qatnashdi. Birinchi jahon urushi xalqaro huquq g'oyasini rad etdi. Misol uchun nemis huquqshunoslari A.Zorn va A.Lassonlar "xalqaro huquq huquq emas, balki eng yaxshi holatda xalqaro axloqdir" deb hisoblaganlar.

Birinchi jahon urushi oldingi barcha qurolli to'qnashuvlardan farq qilib, o'z davri uchun

misli ko'rilmagan bo'ldi. Bu urushdan oldin urushning oldini olishga va har qanday holatda ham uning dahshatlari va oqibatlarini minimallashtirishga qaratilgan xalqaro huquqiy choralar ko'riganida o'z aksini topdi (1899 va 1907 yillardagi Birinchi va Ikkinci Gaaga tinchlik konferentsiyalari, 1907-yilgi tinchlik konferensiyalari) va Yevropada kuchlar muvozanatining paydo bo'lishida AQSH muhim rol o'ynagan. Urushdan keyin AQSH dunyoning yetakchi davlatiga aylandi.

Birinchi jahon urushi voqealari natijasida "genotsid" kabi huquqiy atama shakllana boshladi. A.G. ta'kidlaganidek, Kibalnik va A.S. Martirosyan Turkiya Harbiy tribunal 1919-yil 22-aprelda (Turkiya urushda mag'lubiyatga uchraganidan so'ng) Yosh turklar hukumati rahbarlarini arman genotsidida ayblab, o'z hukmida "Armanlarni yo'q qilish to'g'risida qaror Markaziy okrugda qabul qilinganligini ta'kidladi. Ittihod partiyasi (ya'ni, yosh turklarning hukmron partiyasi) qo'mitasi, deportatsiya va qirg'in "tozalash" kabi narsa edi, chunki ular arman masalasini tubdan hal qilishi kerak edi. Rafael Lemkin, Lvov universitetida talaba bo'lganida, 1915-1918 yillarda Usmonli imperiyasi hukumati buyrug'i bilan arman aholisining ommaviy qirg'in qilinishi haqidagi materiallarni o'rganishni boshladi. Ularning jazosizligidan g'azablangan va xalqaro huquqda genotsid jinoyati uchun jazo belgilash uchun faol kurash boshladi, lekin faqat 1948 yil dekabr oyida Ikkinci Juhon urushidan so'ng, genotsidning yangi dahshatli misollari bilan "Jinoyatning oldini olish va jazolash to'g'risidagi konvensiya" qabul qilindi⁷.

Xulosa qilib aytganda, Birinchi jahon urushida ishtirok etgan davlatlarga ayniqsa mag'lub davlatlarga ko'plab yo'qotishlar olib keldi. Misol uchun davlatlar aholisidan ayrildi, ayrim hududlaridan voz kechishga majbur bo'ldi va eng yomoni qarzdor bo'lib qoldi. Bu esa urushda ishtirok etgan davlatlarning kelgusidagi siyosatini belgilab berdi. Birinchi jahon

⁷А.А. Дорская Международно-правовые последствия Первой мировой войны. –Вестник МГПУ.-6-24б.



urushidan keyingi xalqaro konferensiyalar shu jumladan Versal-Vashington tizimi bir guruh davlatlarning dunyoda siyosiy hukmronligini o'rnatdi. Shu tarzda g'oliblar va mag'lublar o'rtasidagi zidiyatlar, mag'lub davlatlarning o'ch olishi, adolatli tizim o'rnatishga intilishi va yangi urushga olib keldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. В. П. Любин. Современная историография первой мировой войны. 2014. -146.
2. Эргашев.Ш. Жаҳон тарихи 1800-1918 йиллар II кисм. –Тошкент: Узбекистон, 2015. -570 б.
3. <https://courses.lumenlearning.com/suny-hccc-worldhistory2/chapter/the-treaty-of-brest-litovsk/>
4. Xolliyev.A.G. Xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi lqism. –Toshkent: Lesson Press, 2022. -253 b.
5. Lafasov.M, Jo'rayev.U. Jahon tarixi. –Toshkent,2005. -368 b.
6. Дорская.А.А. Международно-правовые последствия Первой мировой войны. – Вестник МГПУ: Серия Юридические Науки. -86.
7. Фишер Ф. Рывок к мировому господству. Политика военных целей кайзеровской Германии в 1914-1918 гг. М.: Политическая энциклопедия. 2017. -681б.